



BANKLARNI AKTIVLAR LIKVIDLILIGINI TA'MINLASHNING DOLZARB MASALALARI

URGENT ISSUES IN ENSURING BANK ASSET LIQUIDITY

**¹Sayfutdinov Bobur
Nodirovich**

¹"Trastbank" XAB Bank likvidliligini boshqarish bo'limi boshlig'i,
dotsent, PhD. **ORCID:** 0009-0004-9928-9269, **E-mail:** snb94@bk.ru

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Ushbu maqolada bank aktivlari likvidliligini ta'minlashda Markaziy bankning o'rni, tijorat banklari kapitalining holati va ularning likvidligiga ta'siri tadqiq etilgan. Shuningdek, aktivlar sifatining ularning likvidligiga, shuningdek, depozitlar va o'z mablag'larining ta'siri ekonometrik usullar orqali tahlil qilingan. Maqolada bank aktivlari likvidliligiga tijorat banklarining o'z mablag'lari ta'siri, Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan iqtisodiy me'yoriy ko'rsatkichlar ta'siri hamda Markaziy bankning monetar siyosat instrumentlari orqali ta'siri ekonometrik modellardan foydalangan holda tadqiq etilgan.

Eng. - This article examines the role of the Central Bank in ensuring bank asset liquidity and analyzes the impact of the capital position of commercial banks on their liquidity. The study also investigates the effect of asset quality, as well as deposits and own funds, on liquidity using econometric methods. Furthermore, the article explores the influence of commercial banks' own funds, the economic regulatory indicators established by the Central Bank, and the Central Bank's monetary policy instruments on bank asset liquidity through econometric modeling.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *tijorat banklari, bank aktivlari, aktivlar likvidligi, tijorat banki likvidligi, to'lovga qobiliyatlilik, moliyaviy barqarorlik, depozitlar, majburiyatlar, likvidlik riski, majburiy zaxira, qayta moliyalash.*

❖ *commercial banks, bank assets, asset liquidity, commercial bank liquidity, solvency, financial stability, deposits, liabilities, liquidity risk, mandatory reserves, refinancing.*

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-maydagi PF-5992-son "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, tijorat banklari aktivlarining sifatini oshirish va ularning likvidliligini ta'minlash, banklarning kapitallashuv darajasi hamda moliyaviy barqarorligini oshirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilab berildi [1]. So'nggi yillarda aholining banklarga bo'lgan ishonchini yanada

mustahkamlash, bank aktivlari likvidligi, to'lovga qobiliyatlilik va barqarorligini ta'minlash borasida ulkan ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Bank aktivlari likvidligi — tijorat banklari aktivlarining qanchalik darajada tez pul mablag'iga aylanishi va shu orqali bankning barcha pul majburiyatlarini o'z vaqtida, to'liq va uzluksiz bajarilishini ta'minlash, uning ishonchliligi hamda iqtisodiy rivojlanish ehtiyojlariga muvofiq mablag'larning yetarliligini belgilaydi.

Bank aktivlari likvidligi — tijorat banklarining depozitorlari, kreditorlari va aksiyadorlari oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish, yuridik va jismoniy shaxslarning bo'sh pul mablag'larini jalb qilish, kredit berish hamda investitsion faoliyatini rivojlantirish qobiliyatidir.

Shuningdek, Basel Committee on Banking Supervision (2021) — bank nazorati bo'yicha xalqaro Bazel qo'mitasining Bazel-3 talablariga asosan, bank aktivlari likvidligiga, jumladan, tijorat banklari likvidligiga alohida e'tibor qaratilgan [2]. Xalqaro Bazel qo'mitasining tavsiyalariga muvofiq, tijorat banklari likvidligini baholashda yangi me'yoriy ko'rsatkichlar joriy qilingan. Jumladan, joriy likvidlik va leveraj ko'rsatkichidan tashqari tijorat banklari uchun — likvidlikni qoplash me'yoriy koeffitsienti hamda sof barqarorlashtirish me'yoriy koeffitsienti tatbiq etilgan. Markaziy bank tijorat banklari tomonidan ushbu me'yorlarning bajarilishini ta'minlash orqali banklarning likvidligi hamda bank aktivlarining likvidligini belgilangan darajada nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bank aktivlari likvidligi barqaror bo'lishi — bank mijozlarining bankka bo'lgan ishonchini oshishiga va shu orqali bank tizimida moliyaviy mablag'lar oqimining kengayishiga olib keladi. Aksincha, bank aktivlari likvidligi barqaror bo'lmaganda mijozlarning banklarga bo'lgan ishonchi kamayib, ular o'z mablag'larini banklardan olib chiqib ketishadi. Bu esa iqtisodiyotda bankdan tashqari aylanmalar hajmining oshishiga olib keladi.

Shu sababli bank aktivlari likvidligiga ta'sir qiluvchi omillarni chuqur o'rganish lozim. Har bir omilning bank aktivlari likvidligiga ta'sir darajasi, qaysi omillarni o'zgartirish orqali eng yaxshi natijalarga erishish mumkinligi bo'yicha aniq tahlillarni amalga oshirish zarur.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Iqtisodiy adabiyotlarda bank aktivlari likvidligiga iqtisodchilar tomonidan deyarli bir xil ta'rif beriladi. Jumladan, bank aktivlari likvidligi (Yensu Joseph, Hadrat Yusuf, 2021) bank aktivlarining tez pulga aylanish darajasidir [3]. Bunga, pul bozori orqali banklar o'rtasida mablag'larni qayta taqsimlash orqali erishiladi. Ma'lumki, bank aktivlari likvidligi asosan aktivlar sifatiga uzviy bog'liq bo'ladi. Bank aktivlari likvidligini boshqarishga ichki va tashqi omillar ta'sir qiladi.

Bank boshqaruvi va bank tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlar (Farg, Harland, va Nixon, 2013) to'g'risidagi izlanishlarda esa bank aktivlari likvidligiga qulay bahoda, talab qilingan miqdorda va kerakli vaqtda likvid aktivlarni topa olish qobiliyati deb ta'rif berilgan [4].

Rossiya bank aktivlari likvidlik muammolari (Vodova, 2013) to'g'risida ham izlanishlar olib borilgan bo'lib, likvidlik muammolarining kelib chiqishi, unga ta'sir qiluvchi omillar hamda likvidlik muammosidan chiqish yo'llari o'rganilgan, bank likvidligi to'g'risida o'z vaqtida va eng kam xarajat bilan bankning o'z majburiyatlarini va mijozlarning kredit bo'yicha talablarini bajarish qobiliyati deya ta'rif berilgan [5].

Rossiya banklari likvidligini qanday qilib tiklash (Prokofyeva, 2019) bo'yicha ham izlanishlar olib borilgan bo'lib, o'z tadqiqotida bank likvidligiga ta'sir qiluvchi omillarni ichki va tashqi o'laroq ikki guruhga ajratib o'rgangan, hamda bank likvidligi tushunchasiga yanada kengroq yondashgan holda bankning qarz, moliyaviy va balansdan tashqari majburiyatlarini bajara olish qobiliyati deb ta'rif bergan [6].

Tijorat banklarida moliyaviy boshqaruv (Nair, Anand, 2020) to'g'risida ham izlanishlar olib borilgan bo'lib, unda banklarning likvidligi, kutilmagan o'zgarishlar bankka likvidlik muammosini keltirib chiqarishi, bank majburiyatlari tarkibida depozitlarning tutgan

ahamiyati bilan birga mijozlarning kreditlarga bo'lgan talablarini qondirish masalasi ham o'rganilgan, hamda bank likvidligi asosan depozitlar va kreditlarga bo'lgan talabni qondirishga layoqatli bo'lishi kerak deb izohlangan [7].

Rossiyalik iqtisodchi olimlardan (Abdullazanova, Kalacheva, 2020) bank aktivlari likvidligiga asosiy e'tibor qaratgan holda amalda bank likvidlik talabini doimo mavjud aktivlari hisobiga emas, balki banklararo kredit resurslari bozorida resurs jalb etgan holda ham bajarishi mumkinligi to'g'risida aytadi va bank likvidligi umumlashgan ko'rsatkichlardan biri bo'lib, bank faoliyati ishonchliligini ko'rsatadi hamda agar mijozlar oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida va hech qanday yo'qotishsiz bajara olsa, bank likvid hisoblanadi deya ta'rif beradi [8].

Iqtisodiyotda moliyaviy inqirozlarning bir necha marta takrorlanishi oqibatida banklar o'sib boruvchi likvidlik riski bilan to'qnashadi va bu o'z navbatida banklar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. Ana shunday paytda bank aktivlarida likvidlik riski yuzaga kelganda, likvidlik holatini boshqarish jarayonida likvidlikning muvozanatda bo'lishi yoki salbiy holatga tushib qolishida, birgina muhim strategik qaror qabul qilinishi orqali bank likvidlik ahvolining yomonlashuvini oldini olish va majburiyatlarni to'liq bajarishga erishish mumkin (Mukherjee, Pana, 2018) [9].

Bank boshqaruvi doirasida bank aktivlari likvidligini boshqarish (B.Berdiyarov, 2021) bo'yicha yozilgan maqolada ham bank aktivlari likvidligini boshqarishning mavjud strategiyalari yoritib berilgan [10]. Ushbu maqolada likvidlikni boshqarish aktivlarni boshqarish, faqat passivlarni boshqarish hamda bir vaqtning o'zida ikkala, ya'ni aktivlarni va passivlarni boshqarishga asoslanganligi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, har bir nazorat usullari o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega ekanligini inobatga olib, har bir bank ko'rsatayotgan operatsiyalari

xarakteridan kelib chiqqan holda qo'llanishi to'g'risida fikr bildirilgan.

Bank aktivlari likvidligini boshqarish (Nure, 2019) bo'yicha yozilgan maqolada ham bank tizimi faoliyatida likvidlik muammolari yuzaga kelganda, likvidlikni boshqarishning bir qator usullari ishlab chiqilganligi to'g'risida ta'kidlab o'tilgan [11]. Unga ko'ra ham likvidlikni boshqarish aktivlarni, passivlarni yoki har ikkala instrumentni bir vaqtning o'zida boshqarishga asoslanishi yoritilganini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, aktivlarni boshqarish orqali likvidlikni boshqarish usuli nisbatan qadimiyroq usul ekani, bu usulga muvofiq bank aktivlarni tez sotiladigan qimmatli qog'ozlarga joylashtirishni nazarda tutishini, agar likvid mablag'larga talab yuzaga keladigan bo'lsa bank naqd pullarga bo'lgan talabni qondirguncha o'z aktivlarini sotishini ta'kidlab o'tgan.

Odatda likvidlikni boshqarishning ushbu strategiyasi aktivlarning transformatsiyasi deb ataladi, chunki pul ko'rinishida bo'lmagan aktivlar naqd pulga aylanishi hisobiga likvid mablag'lar yuzaga keladi.

Bank tizimi likvidligi (Challoumis, 2019) yuqori likvid mablag'lar hajmi, to'lov tizimining uzluksiz ishlashi, markaziy bank tomonidan umumiy nazoratning o'rnatilganligi, shuningdek, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning barqarorligi bilan ta'minlanadi [12].

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada tahlil qilingan ma'lumotlar asosan tijorat banklarining yillik hisobot ma'lumotlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, «Ahbor-Reyting» reyting agentligi ma'lumotlaridan olindi.

Maqolada O'zbekiston bank tizimining eng yirik 6 ta tijorat bankining ("Asakabank" aksiyadorlik tijorat banki; "O'zsanoatqurilishbanki" aksiyadorlik tijorat banki; "Ipotekabank" aksiyadorlik tijorat banki; "Qishloq qurilish bank" aksiyadorlik tijorat banki; "Hamkorbank" aksiyadorlik

tijorat banki; "Agrobank" aksiyadorlik tijorat banki) asosiy ko'rsatkichlaridan foydalanildi. Yuqoridagi tijorat banklarining jami aktivlari bank tizimi aktivlarining 60 foizidan oshig'ini tashkil etadi. Bu esa yuqoridagi tijorat banklari asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha olingan natijalardan bank aktivlari likvidliligini ta'minlashda foydalanish mumkin deb hisoblaymiz. Biroq shuni inobatga olish lozimki, yuqoridagi tijorat banklarining aksariyat qismi bu davlat ishtirokidagi banklar hisoblanadi.

Tadqiqot bank tizimi asosiy ko'rsatkichlarining 5 yillik tahlilini o'z ichiga olgan. Barcha ma'lumotlar choraklik yig'ib tahlil qilindi.

Shuningdek, maqolada analitik tadqiqot sifatida bo'ylama kesim (Longitudinal) tadqiqotlari metodologiyasidan foydalangan holda tahlil birligi sifatida obyekt tanlab, ma'lumotlarni bir necha yil davomida o'rganish orqali tadqiqot muammosini o'zgarish dinamikasini tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, bank aktivlari likvidligi asosan aktivlarning sifati va risk darajasiga uzviy bog'liq bo'ladi. Bank aktivlari likvidligi – bu bank tomonidan joriy va kelajakdagi majburiyat va to'lovlarini hamda kredit bo'yicha mijozlarning talablarini o'z vaqtida bajarish maqsadida kerakli vaqtda va miqdorda, zarar ko'rmasdan aktivlarni tezda pul mablag'iga aylantira olish qobiliyatidir.

Bank aktivlari likvidliligini, bu orqali esa bank tizimi likvidliligini ta'minlashda markaziy banklar muhim rol o'ynaydi. Ular o'zlarining

monetar siyosat instrumentlari orqali banklarning likvidliligiga ta'sir qiladi, tijorat banklari uchun likvidlik me'yorlarini belgilaydi va uning bajarilishi ustidan monitoring o'rnatadi.

O'zbekiston bank tizimi asosiy ko'rsatkichlari tahlilini va ushbu ko'rsatkichlarning bank aktivlari likvidliligiga ta'sirini, ya'ni tijorat banklari aktivlar sifati, o'z mablag'lari va depozitlarning tijorat banklari likvidliligiga ta'sirini o'rganib chiqamiz.

Biz tadqiq qilayotgan 6 ta tijorat bankining asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilamiz va bu ko'rsatkichlarning bank aktivlari likvidliligiga ta'sirini ko'rib chiqamiz. Ushbu 6 ta tijorat banklarining jami aktivlari bank tizimining 60% dan yuqori aktivlarini tashkil etmoqda. Bu banklarning asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha olingan natijalar respublika bank tizimi holati bo'yicha xulosa qilishga asos bo'ladi deb hisoblaymiz. Demak, ushbu banklarning aktivlar sifati, depozitlari va o'z mablag'lari o'zgarishi tijorat banklari likvidli aktivlarining ulushi o'zgarishiga qanchalik ta'sir ko'rsatishini bank tizimi bo'yicha ushbu ko'rsatkichlarning ta'siri bo'yicha xulosa qilishga asos bo'ladi.

Daromad keltiruvchi aktivlarning jami balansdagi ulushi (X_1), daromad keltirmaydigan aktivlarning jami balansdagi ulushi (X_2), depozitlarning jami balansdagi ulushi (X_3), o'z mablag'larining jami balansdagi ulushining (X_4) o'zgarishi likvidli aktivlarning jami balansdagi ulushining (Y) o'zgarishiga bog'liqligini ko'rib chiqish maqsadida korrelyatsion-regression tahlilni amalga oshiramiz.

Ko'rsatkich	Qiymat
Ko'plik R	0,983773
R -kvadrat	0,967809
Meyyorlashgan R -kvadrat	0,967178
Standart xatolik	0,040235
Kuzatuvlar	209

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, kuzatuvlar soni 209 tani tashkil etgani holda, $R^2 = 0,9678$ ga teng bo'ldi. Bu esa yuqori

aniqlikdagi aproksimatsiya ekanligini ko'rsatadi hamda ushbu model jarayonni to'liq ifoda etganligini anglatadi.

	df	SS	MS	F	Ahmiyatligi F
Regressiya	4	9,928456	2,482114	1533,28316	6,1373E-151
Qoldiq	204	0,33024	0,001619		
Jami	208	10,2587			

Dispersion tahlilda biz e'tibor beradigan jihat bu F (Fisher koeffitsienti) testi hisoblanadi. Tahlil ma'noga ega bo'lishi va o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlik mavjudligini ko'rsatuvchi koeffitsient hisoblanadi. Ushbu koeffitsient 0,05

ko'rsatkichdan kam bo'lsa, tahlil ma'noga ega bo'ladi. Bizning tahlilda ushbu koeffitsient 0,05 dan ancha kamligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa bizning tahlilimiz ma'noga ega ekanligini ko'rsatadi.

Koeffitsientlar	Standart xatolik	t-statistika	"R" ahamiyati	Quyi 95%	Yuqori 95%	Quyi 95,0%	Yuqori 95,0%
Y-o'zgaruvchi	1,022343	0,021319	47,9556	4,91E-113	0,98031	1,064376	0,98030995
0,6264	-0,97697	0,019105	-51,136	2,73E-118	-1,014639	-0,939301	-1,01463868
0,073999	-0,97175	0,044484	-21,845	2,581E-55	-1,059456	-0,88404	-1,05945634
0,314294	-0,0051	0,021441	-0,2377	0,8123137	-0,047371	0,037176	-0,04737113
0,101861	-0,45917	0,104332	-4,401	1,736E-05	-0,664875	-0,253461	-0,66487502

Bu jadvalda e'tibor berishimiz lozim bo'lgan ko'rsatkich bu "R-ahamiyati" hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich 0,05 birlikdan kam bo'lsa, tahlil qilinayotgan mustaqil o'zgaruvchilar va bog'liq o'zgaruvchilarning ta'sirini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bizning tahlilda faqatgina "X3" mustaqil o'zgaruvchining "Y" bog'liq o'zgaruvchiga ta'siri mavjud emas yoki juda past hisoblanadi.

Bundan kelib chiqqan holda, regressiya natijalari orqali biz o'z modelimizni tuzib chiqamiz. Bunda:

$$Y=1,022-0,98X_1-0,97X_2-0,46X_4$$

Bu modeldan ko'rinib turibdiki, bog'liq o'zgaruvchi va mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasida teskari bog'lanish mavjud. Demak:

daromad keltiruvchi aktivlarning jami aktivlardagi ulushining 1 birlikka o'zgarishi, likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushining 0,98 birlikka o'zgarishiga olib keladi;

daromad keltirmaydigan aktivlarning jami aktivlardagi ulushining 1 birlikka o'zgarishi, likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushining 0,97 birlikka o'zgarishiga olib keladi;

jami kapitalning jami passivlardagi ulushining 1 birlikka o'zgarishi, likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushining 0,46 birlikka o'zgarishiga olib keladi.

Endi, O'zbekiston bank tizimining asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilamiz va bu ko'rsatkichlarning tijorat banklari likvidligiga ta'sirini ko'rib chiqamiz.

1-jadval
Tijorat banklarining taqqoslama ko'rsatkichlari to'g'risida ma'lumot [13]

Ko'rsatkichlar	01.01.20 y.	01.01.21 y.	01.01.22 y.	01.01.23 y.	01.01.24 y.
Aktivlarning majburiyatlarga nisbati, %	114,2%	114%	123%	119%	119%
Aktivlar, mlrd so'm	166 632	214 420	272 726,6	366 121,1	444 922,4
Majburiyatlar, mlrd so'm	145 956	187 741	221 696,0	307 769,8	374 004,8
Kredit qo'yilmalarning depozitlarga nisbati, %	207,7%	188,5%	232,5%	141,4%	209%
Kreditlar, mlrd so'm	110 572	133 751	211 581	276 974,8	326 385,5
Depozitlar, mlrd so'm	59 579	70 001	91 009	114 746,9	156 189,8

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tijorat banklari depozitlari kredit qo'yimalari bilan bir xil mutanosiblikda o'sdi. Jumladan, o'tgan 2024-yilda tijorat banklari kredit qo'yimalari 1,2 martaga o'sgan bo'lsa, uning manbasi sifatida qaraladigan tijorat banklari depozitlari 1,4 martaga o'sgan. Bank depozitlarining o'sishini banklarda kreditlarni moliyalashtirish manbalarining kengayib borishi sifatida qarash mumkin.

Biz tahlil qilayotgan davrda bank tizimi majburiyatlarining, jumladan, jalb qilingan

kredit va lizinglar, jami depozitlar va depozitlar tarkibi o'rganib chiqildi. Tahlil davri mobaynida tijorat banklari aktivlari 2,7 baravarga o'sgan bo'lsa, depozitlari 2,6 martaga o'sgan. Bu esa tijorat banklari aktivlarining o'sish manbai bo'lib bank depozitlari emas, balki xalqaro moliyaviy institutlardan va mahalliy fondlardan jalb qilingan maqsadli mablag'lar xizmat qilgan.

Tijorat banklari likvidliligiga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlardan – yuqori likvidli aktivlar va bankning jami kapitalining tijorat banklari aktivlaridagi ulushi o'rganib chiqiladi.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi bank tizimining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari [13]

mlrd so'm

Ko'rsatkichlar	01.01.20 y.	01.01.21 y.	01.01.22 y.	01.01.23 y.	01.01.24 y.
Jami aktivlar	166 632	214 420	272 726,6	366 121,1	444 922,4
Yuqori likvidli aktivlar	37 775,5	20 202	30 873,8	50 475,7	75 992,2
Jami kapital	20 676	26 679	51 030,6	58 351,3	70 917,6
Likvid aktivlar/jami aktivlar, %	22,7%	9,4%	11,3%	13,8%	17,1%
Jami kapital/jami aktivlar, %	12,4%	12,4%	18,7%	15,9%	15,9%

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, bankning kapitali va likvidli aktivlari mablag'i qoldig'i bo'yicha o'sish tendensiyasiga ega bo'lsada, jami aktivlardagi ulushi bo'yicha tijorat banklari kapitali o'sish sur'atlari yuqori bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Tahlil davri mobaynida, banklari likvidli aktivlarining jami aktivlardagi ulushi 5,6 foizga (22,7 foizdan 17,1 foizgacha) kamaygan bo'lsa, jami kapitalning jami aktivlardagi ulushi 3,5 foizga (12,4 foizdan 15,9 foizgacha) oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, bank kapitali yetarlilik ko'rsatkichlarini baholash maqsadida tijorat banklari aktivlarini risklilik darajasi bo'yicha tasniflaganda, daromad keltirmaydigan muammoli aktivlar 150 foiz miqdorida tasniflanadi. Markaziy bankning ushbu talablari natijasida tijorat banklari o'z aktivlari tarkibida daromad keltirmaydigan aktivlarni kamaytirishga rag'batlantiriladi va bu orqali o'z likvidliligini oshirishga harakat qiladi.

Bundan tashqari Markaziy bank qayta moliyalash stavkasi orqali bank tizimi

likvidliligiga ta'sir o'tkazishi mumkin bo'ladi. Jumladan, qayta moliyalash stavkasining oshirilishi tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning qimmatlashishiga va tijorat banklari kredit va lizing operatsiyalari miqdorining kamayishiga olib keladi.

Hozirda Markaziy bankning davlat qimmatli qog'ozlari bilan ochiq bozor operatsiyalarini amalga oshirishi tijorat banklari likvidli aktivlarining daromadliligini ham ta'minlaydi. Bu esa, tijorat banklarini o'z likvidliligi va daromadliligini ta'minlash uchun davlat qimmatli qog'ozlarini sotib olishga rag'batlantiradi.

Xulosa va takliflar.

Bank aktivlari likvidliligi, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, mamlakat bank tizimining barcha pul majburiyatlarini o'z vaqtida, to'liq va uzluksiz bajarilishini ta'minlash, uning ishonchliligi va iqtisodiy rivojlanish ehtiyojlariga muvofiq mablag'larning yetarliligini belgilaydi.

Bank aktivlari likvidliligini oshirishda va uni ta'minlanishida Markaziy bank muhim rol o'ynaydi. Markaziy bank monetar siyosat instrumentlari orqali bank aktivlari likvidliligiga bevosita ta'sir o'tkazsa, tijorat banklari uchun o'rnatilgan iqtisodiy normativlarning bajarilishini ta'minlash orqali bank aktivlari likvidliligini nazorat qilib boradi. Bank tizimi ishtirokchilari bo'lgan har bir tijorat banki Markaziy bank tomonidan belgilangan iqtisodiy normativ ko'rsatkichlarni bajarish orqali bank aktivlari likvidliligini ta'minlashda o'z hissasini qo'shib boradi.

Yuqoridagi tahlillar va ma'lumotlar asosida bank aktivlari likvidliligini oshirish yo'nalishlari deb quyidagilarni hisoblaymiz:

1. Markaziy bank qayta moliyalash stavkasi orqali bank aktivlari likvidliligini boshqarish. Bunda, Markaziy bank bank aktivlari likvidliligi muammosi yuzaga kelganda, qayta moliyalash stavkasini ko'tarib qo'yishi va shu orqali tijorat banklari kreditlarining va pul massasi o'sish sur'atini mo'tadillashtirishga harakat qilishi lozim. Bank aktivlari likvidli aktivlari profisiti kuzatilsa, qayta moliyalash stavkasini tushirish orqali, aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarni kredit olishga rag'batlantirish orqali pul massasi va bank tizimi likvidliligiga ta'sir ko'rsatadi.

2. Qayta moliyalash stavkasining yuqori bo'lib turishi milliy valyutaning jamg'arish vositasi sifatida foydalanilishiga olib keladi. Bu esa, tijorat banklari tomonidan aholining qo'lida bo'sh mablag'larni bank depozitlariga va shu orqali ushbu mablag'larni bank aylanasi jalb qilishi mumkin. Bunda ushbu bo'sh turgan mablag'larni tijorat banklarining uzoq muddatli depozitlariga jalb qilish maqsadga muvofiq. Bu bank tizimi likvidliligini oshirishga xizmat qiladi.

3. Ochiq bozor operatsiyalari orqali Markaziy bank bank aktivlari likvidliligiga ta'sir ko'rsatadi. Bunda Markaziy bank tijorat banklariga davlat qimmatli qog'ozlarini sotish hisobiga tijorat banklari aktivlarini ham daromadli, ham likvidli bo'lishini ta'minlaydi. Bu orqali tijorat banklari o'z aktivlari tarkibida likvidli aktivlarni yetarli miqdorda ushlab turishga rag'batlantiriladi. Jumladan, tijorat banklarining "NOSTRO" hisobvarag'idagi mablag'larni davlat qimmatli qog'ozlarini sotib olishga yo'naltirishi mumkin. Bu esa, tijorat banklari rentabelligini ham oshishiga xizmat qiladi.

4. Markaziy bank tijorat banklariga o'rnatilgan iqtisodiy normativ ko'rsatkichlarning bajarilishini ta'minlash orqali tijorat banklari aktivlari likvidliligini va shu orqali bank tizimi likvidliligini nazorat qilib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son farmoni.

2. Basel Committee on Banking Supervision. (2021). *Basel III: International framework for liquidity risk measurement, standards and monitoring*. Switzerland: Bank for International Settlements.

3. Yensu Joseph, Hadrat M. Yusif, Emmanuel Tetteh, George Asumadu, Daniel A. Atuilik. *Main Determinants of Banks' Stability: Evidence from Commercial Banks in Ghana*. *Journal of Finance and Economics*. 2021. Vol. 9, No. 2, P. 42-52.

4. Farag, M., Harland, D. & Nixon, D. (2013). *Bank capital and liquidity*. *Bank of England Quarterly Bulletin*, 53(3), 201-215.

5. Vodová, P. (2013). *Liquid assets in banking: What matters in the Visegrad countries?* *E+ M Ekonomie a Management*, (3), 113.

6. Прокофьева Е.Н. Ликвидность банковского сектора России в условиях нестабильности: тенденции формирования и последствия для экономики // Вестник Северо-Осетинского государственного университета им. К. Л. Хетагурова. 2019. № 2. С. 130-136.
7. Nair, A.R. and Anand, B. (2020). Monetary policy and financial stability: Should central bank lean against the wind? *Central Bank Review*.
8. Абдуллазанова К.З., Калачева Е.А. Анализ состояния ликвидности банковского сектора России // Научные исследования XXI века. 2020. № 1(3). С. 112-118.
9. Mukherjee, T. and Pana, E. (2018). The distribution of the Capital Purchase Program funds: Evidence from bank internal capital markets. *Financial Markets, Institutions & Instruments*, 27(4), pp.125-143.
10. Bakhridin Berdiyarov (2021). Uzbekistan in Banking Practice: Opportunities to Use Foreign Experience to Ensure Liquidity and Solvency of Commercial Banks. // ICFNDS 2021: The 5th International Conference on Future Networks & Distributed Systems. December 2021, pp. 378-392. <https://doi.org/10.1145/3508072.3508141>
11. Nure, G. (2019). High Liquidity or Low Liquidity Is Better to Achieve High Profitability? Evidence from Banks in Central and Southern Europa. *International Finance and Banking*, 6(2), p.1.
12. Challoumis, C. (2019). Theoretical Definition of the Velocities of Escaped Savings With Than of Financial Liquidity. *SSRN Electronic Journal*.
13. www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti.